

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA IJTIMOY MUHIT OMILLARI

Jo'raboyeva Lochinoy

Asaka tumani 36-DMTT direktori

Muloqot – bu axborot va predmet aloqa bo'lib, bu jarayon davomida shaxslararo munosabat shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shaxslararo faol muloqot bu tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligini tasdiqlovchi birdan-bir omildir.

Ichki guruhlararo aloqa tizimining integral tavsifi guruhlarining bir xilligi, yaxlitligi hisoblanib, uning ko'rsatkichi guruh uchun bir qadar ahamiyatli bo'lgan ob'ektga (shaxsga, hodisaga, voqeaga) nisbatan fikrlar, baholar hamda guruh a'zolarining maqsadli yo'nalishi va pozitsiyasining mos kelish darajasi hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlarning umumiyliigi, tashkiliy jihatdan bog'liqligi, faoliyatning ruhiy "kayfiyati" va sensomotor muvofiqligi guruh birdamligini belgilovchi o'zaro ta'sirning asosiy omillari hisoblanadi. Shaxsiy munosabatlar tahlili guruhni tirik organizm sifatida olib qarashga imkon yaratadi. Shaxsiy munosabatlarning, ayniqsa, xush ko'rish va xush ko'rmaslik hamda, avvalambor, shaxs afzalliklarining o'ziga xosligi guruh, jamoaning shakllanganlik darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir. Shuning uchun ham inson tabiatining bu murakkab qirrasini ochish ahamiyatlidir. Turli xil kommunikativ vaziyatlarni tushuna bilmaslik ko'p hollarda odamlarni bir-biridan ajratib yuboradi, ziddiyatlarga olib keladi. Shu munosabat bilan guruh birdamligi masalasi, uning ichki mexanizmlari va shakllanish vositalari tahlili bir qadar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Guruh birdamligi masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar guruhni tushunishga, birinchi navbatda uni emotsional asosga ega bo'lgan shaxslararo munosabatlarning muayyan tizimi sifatida olib qarashga tayanadi. Guruh birdamligi – bu guruh ichidagi shaxslararo aloqada guruh hayotiy faoliyatining barqarorligi va bardavomligini ta'minlovchi tartiblilik, muvofiqlik va mustahkamlikdir. Guruh birdamligini sistematik tarzda o'rganishning boshlanishi XX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi, chunki aynan shu davrda maxsus tadqiqotlar bajarilgan edi. Guruh birdamligi uning tarkibidagi individlarning o'zaro munosabatlari natijasi o'laroq paydo bo'ladi. U guruh a'zolarining barchasiga birday ta'sir etuvchi va guruh yaqinligini keltirib chiqaruvchi barcha kuchlar yig'indisini aks ettiradi. Bu "kuchlar" individ uchun guruhning kerakligi yoki guruhga a'zoligi uchun qoniqishi bilan izohlanadi. Ammo keraklilik ham, qoniqish ham, guruhning sof emotsional yo'nalishdagi munosabatini aniqlash yordamida tahlil qilinadi. Shuning uchun ham birdamlilik bu holatda guruh a'zolari emotsional afzalliklari tizimining ma'lum tavsifi sifatida olib qaraladi. Ushbu ta'rifda individga ta'sir etuvchi yo'nalish, vektor kabi atamalarni ifodalovchi, ya'ni individni guruhga tortuvchi, undan itaruvchi emas, ijobiy kuchlar tushunchasi yetishmaydi.

Masalani o'rganishning boshqacha yondashuvi ham mavjud bo'lib, unga ko'ra guruh birdamligi nafaqat muayyan guruh xususiyatlari, balki ayni paytda ushbu xususiyatlarning guruh a'zolari extiyojlariga mos tushishiga, ulardan kutilajak ijobiy natijalarga ham bog'liqdir. Bu o'rinda emotsional tavsifga asosiy urg'u beriladi. Guruh birdamligi kuchlari ikkita hosil qiluvchi turga ega: 1–o'z guruhining jozibadorligi; 2–boshqa munosib guruhlarini jalb qilish kuchi. Buning natijasida guruhni individlar birligi deb belgilash mumkinki, guruhga birlashganlarning har biri birlashish afzalliklarini guruhdan tashqariga nisbatan ko'p deb biladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, har qanday guruh azaldan birdam. Biroq, dastlabki birdamlikni ko'z oldimizga keltirganimizda ham uning doimiyliigi va o'sib borishi masalasini chetlab o'tmaslik kerak. Natijada tadqiqotchilar o'z oldilariga guruh birdamligining mavjud darajasini o'lchash imkoniyatini beradigan vositalarni topish va qaysi usul bilan uni o'stirishni aniqlash maqsadini qo'ydilar.

Shuningdek, shaxslararo munosabatlarning yaqinlik darajasini ham belgilash zarur: tanishlik munosabati boshqa, do'stlik munosabati boshqa. Bu shaxslararo munosabatlar yaqinligining birmuncha chuqurroq farqlanishi bo'lib, uning tarkibida o'sishning nafaqat son, balki sifat jihatdan farqlanishlari ham mavjud. Shaxslararo ikki taraflama yaqinlik-uzoqlik, xush ko'rishxush ko'rmaslik alohida mazmun kasb etib, u mustahkam didaktik aloqalar paydo qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Ular o'zlarida qanchalik katta yaqinlik his etishsa, shunchalik ko'p shafqatlilikka, binobarin xatti-harakatlarida shunchalik ko'p muvofiqlik va mushtaraklikka moyil bo'ladi. O'z navbatida yaqinlik o'zaro xush ko'rishlik va baholardagi muayyan uyg'unlik va roziliksiz amalga oshishi mumkin emas. Yaqinlik asosida boshqa bironi birmuncha yaxshi

bilish uning harakatlarini xattoki yangi vaziyatlarda ham oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda, ikki taraflama xush ko'rish va xush ko'rmaslik shaxslararo munosabatda nafaqat emotsional yuk tashiydi balki, sheriklarning bir birini qabul qilishi va tushunishida tartibga soluvchi vazifani ham bajaradi.

Guruh birdamligini o'lchash ikkita bir-biriga chambarchas bog'liq metodik yondashuvdan iborat. Birinchisi – guruh a'zolarining emotsional yoqimlilikini o'lchash. U quyidagi taxmin asosiga quriladi: guruhning qancha ko'p a'zosi bir-birini yoqtirsa, butun guruh shunchalik yoqimli. Guruh birdamligi shunchalik yuqori. Metodik apparat yo ijtimoiy o'lchov texnikasining turli variantlari, yoki xush ko'rishlikning maxsus shkalalaridan iborat bo'lishi mumkin. Guruh birdamligining ijtimoiy o'lchov koeffitsienti – bu ikki taraflama ijobiy tanlovlarning nazariy jihatdan mumkin bo'lgan sonlari bo'linmasining bir qismidir. Shkalalardan foydalanishda sinalayotganlar ikki taraflama xush ko'rishni kontinuum bo'yicha "juda yoqadi"dan "juda yoqmaydi" gacha bo'lgan qarama-qarshi qutbda baholaydilar. Yakuniy ko'rsatkich guruh a'zolarini o'rta arifmetik o'zaro baholash sifatida hisoblanadi.

Ikkinchi metodik yondashuv – guruhni umumiy jihatdan emotsional baholashni o'rganish. U o'sib boruvchi savollar texnikasidan iborat. Ayrim hollarda sinalayotganlar guruhga umumiy baho beradi: "Siz uchun guruh qanchalik yoqimli?", "Siz guruh a'zolariga qay darajada bog'langansiz?" Boshqa hollarda o'zining guruhga a'zolik darajasini baholaydi. "Siz mazkur guruhga a'zo bo'lib qolishni xohlaysizmi?", "Agar Sizda xuddi shu ishni xuddi shu maoshga boshqa guruhda bajarish imkoniyati tug'ilsa, Siz guruhdan-guruhga o'tishga qanday qaragan bo'lar edingiz?" Yakuniy ko'rsatkichlar individual ma'lumotlarning o'rtachasidan kelib chiqib belgilanadi. Bu metodik usulni baholar ekanmiz, bunchalik "ko'ndalang" savollarga samimiy javob olish mushkul, degan fikrga qo'shilamiz. Guruh birdamligining yagona mavjudlik shakli – individual emotsionallikni afzal bilish. Birdamlikni amaliy tarzda o'rganishning bosh omili alohida individning qoniqish darajasini baholash hisoblanadi. (Guruhda shaxslararo bir-birini qabul qilish). Ijtimoiy o'lchov yo'nalishi oqimida birdamlik shaxslararo munosabatlarning rivojlanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq holda joylashgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qaror.
2. Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 30 avgustdagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to'g'risida"gi 155-sonli buyrug'i.
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi.– T.:2018.
4. M.Yuldashev va boshqalar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish o'quv qo'llanma (1-qism) T.:2020.
5. P. Yusupova. «Maktabgacha tarbiya pedagogika» «O'qituvchi» T- 1993y.